

Maqola turi (Maqola, Filologiya, Asl maqola)

Internet sharhlarida salbiy semantika hamda jamoatchilik fikri dinamikasining ifodalanish xususiyatlari

Ismoilova Odinoxon A'zamjon qizi^{1*}

¹ University of Economics and Pedagogy; Andijon; O'zbekiston; ismoilovaodinaxon5@gmail.com.

* Yozishmalar: ismoilovaodinaxon5@gmail.com; Tel.: +998993754605 (171003; Andijon viloyati, Oltinko'1 tumani, Mehnat MFY, Do'stlik ko'chasi, 45; University of Economics and Pedagogy; O'zbek va rus tili kafedrasida o'qituvchisi; Andijon; O'zbekiston)

Abstrakt

Ushbu maqolada internet sharhlarida uchraydigan salbiy mazmunning semantik xususiyatlari hamda uni ifodalovchi lingvistik vositalar tahlil qilingan. Tahlil materiali sifatida YouTube platformasida e'lon qilingan turli videolarga yozilgan sharhlar tanlab olingan. Misollar asosida salbiy bahoni ifodalovchi leksik, semantik va pragmatik vositalarning qo'llanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, internet sharhlari orqali foydalanuvchilarning voqelikka munosabati, emotsional holati va subyektiv baholari namoyon bo'lishi, bunday sharhlar esa auditoriyada muayyan ijtimoiy qarashlarning shakllanishi, tanqidiy mushohada yuritilishi hamda jamoatchilik fikrining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari internet diskursida salbiy semantikaning namoyon bo'lish mexanizmlarini aniqlash va zamonaviy mediakommunikatsiyada baholovchi til birliklarining funksional xususiyatlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: sotsiologik omillar, morfologik shakllar, obyektiv borliq, subyektiv baho, kommunikativ maqsad, salbiy semadagi sifatlar, jamoatchilik fikri.

Type of the Paper (Article, Philology, Original Paper)

Features of the expression of negative semantics and public opinion dynamics in internet comments

Ismoilova Odinoxon A'zamjon qizi^{1*}

Academic Editor: Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich

Received: 16.07.2026

Revised: 01.08.2026

Accepted: 13.08.2026

Published: 19.08.2026

Copyright: © 2026 by the authors.
Submitted for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\)](#) license.

¹ University Of Economics and Pedagogy, Andijan; Uzbekistan; ismoilovaodinaxon5@gmail.com.

* Correspondence: ismoilovaodinaxon5@gmail.com; Tel.: + 998993754605 (171003; Andijan region, Altynkul district, Mehnat MFY, 45, Dostlik street; University Of Economics and Pedagogy; Lecturer of the Department of Uzbek and Russian Languages; Andijan; Uzbekistan)

Abstract

This article examines the semantic features of negative meanings expressed in Internet comments and analyzes the linguistic means used to convey negative evaluation. Comments collected from the YouTube platform serve as the empirical material for the research. Based on the analysis, the study highlights the lexical, semantic, and pragmatic

features of linguistic units that express negative evaluation. The findings demonstrate that Internet comments reflect users' subjective viewpoints, emotional states, and personal attitudes toward social events and phenomena. Furthermore, the study argues that such comments contribute to the formation of public opinion, encourage critical reflection among audiences, and influence the interpretation of social issues in digital communication. The results of the research provide valuable insights into the mechanisms of negative semantics in online discourse and contribute to the study of evaluative language and communication in contemporary digital media.

Keywords: sociological factors, morphological forms, objective reality, subjective evaluation, communicative purpose, adjectives with negative semantics, public opinion.

1. Kirish (Introduction)

Internet sharhlarida namoyon bo'ladigan subyektivlik turli sotsiologik omillar, jumladan, shaxsning yoshi, jinsi, kasbi va individual hayotiy tajribasi bilan uzviy bog'liqdir. Bunday baholar insonlarning voqelikka bo'lgan munosabati, shaxsiy qarashlari va pozitsiyasini aks ettiradi. Taniqli olim M. Hakimov ta'kidlaganidek, matn muallifining ruhiy holati ham uning emotsional munosabatini shakllantiruvchi muhim omillardan biri [3] hisoblanadi. Shu bois internet sharhlarida ifodalangan har qanday subyektiv baho, odatda, ijobiy yoki salbiy xususiyat kasb etishi bilan tavsiflanadi. "So'zlovchining obyektiv borliqqa va o'z nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatining ifodalanishi subyektiv baho" sifatida ta'riflanib, shu kunga qadar uni ifodalovchi morfologik shakllar monografik planda tadqiq qilingani va uning pragmatikaning o'rganish obyekti [4] ekani ta'kidlangan.

Shu ma'noda baholovchi xususiyatiga ko'ra sharh nutqiy janri ikki tur: ijobiy va salbiy ma'no ifodalovchi sharhga ajratiladi. Ba'zi manbalarda sharhning baholovchi tanqidiy-xususiyati "kim yoki nimadir to'g'risida fikr bildirish, biror narsaga yoki biror shaxsga baho berish" deb talqin qilinadigan "taqriz" nutqiy janriga o'xshatiladi [2]. Biroq biz yuqoridagi fikrga qo'shilmaymiz. Sababi, ikki nutqiy janr ham matn yoki asar haqida fikr-mulohaza bildirish shakllari bo'lishiga qaramay, ularning kommunikativ maqsadi, uslubi, hajmi va ma'no teranligi jihatidan bir-biridan farqlanadi.

2. Materiallar va usullar (Materials and Methods)

Bu qarashni aynan internet komentariylari misolida ko'rib chiqsak, ijobiy ma'noni ifodalovchi sharhlar muallifning voqelikka bo'lgan ijobiy semadagi subyektiv munosabatini bildiradi. Tadqiqotimiz markazi bo'lgan salbiylik ma'nosini ifodalovchi onlayn sharhlar esa muallif uzatgan axborotga nisbatan tanqidiy yoki past baholovchi fikrlar sanalib ularning tasniflanishi haqida avvalgi maqolamiz [1] da fikr yuritgan edik. Shuningdek, muallifning mazkur tadqiqot ishida shu bahoni ifodalashning turli xil usullaridan salbiy semadagi siflatlar, metaforalar, neologizm, vulgarizm va varvarizm kabi leksik birliklarga murojaat qilingan va misollar keltirilgan. Yuqoridagi mulohazalarni rivojlantirgan holda aytish mumkinki, salbiy ma'no quyidagi usullar orqali ham yuzaga kelishi mumkin:

1. Ritorik so'roq gaplar: [@Jemchug7707](#): Эээээ ёш кизчага негa шунча шпаклёвка



[5].

Yuqoridagi komentariyda ritorik so'roq gap orqali ekpressivlik va yashirin inkor ma'nosi berilgan. Muallif jumla orqali jamiyatda qizlar nega bunchalar makiyaj qilishga

shoshilishlari va aslida bu tendensiyaning barvaqt uyg'onishi salbiy oqibatlariga olib kelishi haqida fikri orqali achinish pragmatik mazmunini ifodlagan.

2. Inkor yoki salbiy baho mazmunidagi fe'llar

[@Uz.salatik](#): Vauuuv bu yigitni shu tatirofkasi buzubturadude ochirvorsa takoy paxlavonde o'zbe yigitbolardi[6].

Komentariy matnida erkak jinsiga mansub model haqida ijobiy konnotativ munosabat mavjud. Muallifning ismi-sharfi berilmagani sababli shaxsiy identifikatsiyasi berilmagan bo'lsa-da, "Vau" undov so'zi orqali va qarama-qarshi jins vakiliga nibatan shaxsiy qiziqishlaridan uning ayol kishi ekanligini taxmin qilishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda bu jumlada ijobiy ma'no ostida salbiy ma'no elementlari ham mavjud bo'lib, paxlavonday o'zbek yigiti birikmasi barvasta va zabardast, jismoman yetuk ma'nosida qo'llanilib, emotsional-ekspressivlikni ifodalayotgan bo'lsa-da, tatirovka leksemasi bilan oppozitiv munosabatda qo'llangan. Chunki o'zbek millatiga mansub kishilarga tatirovka chizdirish xos emas. Salbiylikni yuzaga keltirgan "buzubturadide" so'zi so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, bu yerda "buzib turibdi-da" fe'lining internet jargonsifat ko'rinishidir. Ya'ni *-da* kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi asosga qo'shilib, *-de* shaklida ishlatilgan. Shunday bo'lsa-da yuqoridagi semantik tarkib qo'shimcha ma'no ottenkalarini hosil qilgan.

3. Salbiy ma'nodagi emoji'lar, ya'ni (, , , , , , , , , , ) lar zamonaviy muloqotda shunchaki rasmlar emas, balki ma'lum bir pragmatik maqsadni va muallifning salbiy munosabatini ifodalovchi noverbal vositalar sanaladi. Komentator nutqda qulaylikka intilish va tejamkorlikka erishish maqsadida yuqorigagi grafik vositalardan foydalanadi. Quyidagi virtual nutq parchasida ham foydalanuvchining kontentdagi voqelikka nisbatan modal munosabati ifodalangan: [@Nazokat-d7l](#): Бефопарасат бошловчилар.   Модел Киз жуда акилли экан.

4. Sifat oldidan eng, g'oyat juda, picha, xiyol, biroz kabi belgining darajasini bildiruvchi so'zlarni keltirish orqali: [@ShavkatbekAbdulayev-s5l](#): Энг бемаза узум бй [7].

Tarmoqlarda Muskat uzumi deb ataluvchi Xitoy uzuming reklamasini va uni tatib ko'rib baho berish, ya'ni Mukbang usuli trend darajasigacha ko'tarilgan. Kimgadir yoqar lola, kim atirgul shaydosi deganlaridek, odatiy uzum ta'mlariga o'rgangan xalqimiz bu uzum haqida ba'zilar ijobiy, ko'pchiligi esa salbiy baho beradilar. Ana shu ko'pchilikni tashkil qiluvchi auditoriya qismi hali bu uzum navini tatib ko'rmagan insonlarning fikriga ta'sir etishi, ya'ni salbiy tomonga shakllantirib qo'yishi mumkin. Yuqoridagi misolda ham salbiy ma'no shu ma'nodagi sifat oldidan *eng* so'zini keltirish orqali yuzaga kelgan.

3. Natijalar (Results)

Qayd etish kerakki, internet sharhlarining muhim vazifalaridan biri jamoatchilik fikrini shakllantirish sanaladi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy-iqtisodiy voqealarga, ayrim shaxslar yoki guruhlarining faoliyatiga bo'lgan yashirin yoki oshkorlik bilan ifodalangan munosabatlar doirasida olib boriladigan ijtimoiy ong shaklidir. Internet komentariylari esa jamoatchilik fikrini yuzaga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Internet saytlarida ham biror mahsulot yoki brend haqidagi fikrlar ilgari surilsa, marketing yuzasidan reklama olib borilsa, auditoriya uchun uning ostidagi qoldirilgan izohlar qiziq albatta. Internet sharhlari bu vaziyatda kishilarning to'plagan tajribalari majmuyi sifatida, boshqa shaxslarga "yo'l ko'rsatadi". Mahsulot sifati foydalanuvchilar tomonidan ma'qullanadi yoki aksincha keskin tanqidiy fikrlar orqali salbiy baholanadi. Insonlarda boshqalarning fikriga qarab o'z qarashlarini o'zgartirish yoki ishonch hosil qilishga moyillik kuchli bo'ladi. Shuning uchun ham internet komentariylar ijtimoiy fikrlarni mushohada va muhohaza qilib ko'rishga keng imkoniyat yaratib beradi.

Ba'zan biror isboti mavjud bo'lmagan sharhlar ham jamoatchilik fikriga nojo'ya ta'sir ko'rsatib qo'yishi mumkin. Bular xoh provokatsion, xoh diskriminatsion yoki manipulyatsion xarakterda bo'lishidan qat'iy nazar, kommunikatorlar faqat ishonchli manbalarga tayanishlari kerak bo'ladi.

4. Xulosa (Conclusions)

Xulosa o'rnida aytish joizki, internet komentariylari subyektivlik, evaluativlik funksiyalari bilan bir qatorda, jamoatchilik fikrini shakllantirish kabi vazifalarni ham bajara oladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlay olamizki, salbiy ma'noni bildiruvchi internet komentariylar, masofaviy muloqot shaklining mahsuli bo'lishiga qaramay, har qanday fikrni tez tarqalishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Kuzatishlar orqali olingan tahlil natijalari ushbu jarayonning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor ekanligini ko'rsatib berdi. Birinchidan, salbiy ma'nodagi sharhlar, auditoriyani baholanayotgan voqelikka nisbatan tekshirib ko'rish, dalillarga asoslanishlik nuqtayi nazarini bilan qarashlariga sabab bo'lsa, ikkinchidan, shu ma'nodagi sharhlar jamoatchilik fikrini umuman teskari tomonga burib yuborishi ham mumkinligi bilan izohlanadi.

Author Contributions: For research articles with several authors, a short paragraph specifying their individual contributions must be provided. The following statements should be used "Conceptualization, X.X. and Y.Y.; methodology, X.X.; software, X.X.; validation, X.X., Y.Y. and Z.Z.; formal analysis, X.X.; investigation, X.X.; resources, X.X.; data curation, X.X.; writing—original draft preparation, X.X.; writing—review and editing, X.X.; visualization, X.X.; supervision, X.X.; project administration, X.X.; funding acquisition, Y.Y. All authors have read and agreed to the published version of the manuscript." Please turn to the [CRediT taxonomy](#) for the term explanation. Authorship must be limited to those who have contributed substantially to the work reported.

Muallif hissalari: Bir nechta mualliflar ishtirok etgan tadqiqot maqolalari uchun ularning individual hissalarini ko'rsatuvchi qisqa paragraf taqdim etilishi kerak. Quyidagi iboralar qo'llanilishi kerak: "Kontseptualizatsiya, X.X. va Y.Y.; metodologiya, X.X.; dasturiy ta'minot, X.X.; validatsiya, X.X., Y.Y. va Z.Z.; rasmiy tahlil, X.X.; tadqiqot, X.X.; resurslar, X.X.; ma'lumotlarni yig'ish, X.X.; yozish — asl loyihani tayyorlash, X.X.; yozish — ko'rib chiqish va tahrirlash, X.X.; vizualizatsiya, X.X.; nazorat, X.X.; loyihani boshqarish, X.X.; moliyalashtirishni jalb qilish, Y.Y. Barcha mualliflar qo'lyozmaning nashr etilgan versiyasini o'qib chiqdilar va rozilik bildirdilar." Atamaning izohi uchun iltimos, CRediT taksonomiyasiga murojaat qiling. Mualliflik hisobot qilingan ishga katta hissa qo'shganlar bilan cheklanishi kerak.

Mualliflar haqida ma'lumot:

Ismoilova Odinaxon A'zamjon qizi, E-mail: ismoilovaodinaxon5@gmail.com, O'zbek va rus tili kafedrası o'qituvchisi, "University of Economics and Pedagogy", O'zbekiston, 171003, Andijon viloyati, Oltinko'l tumani, Mehnat MFY, Dostlik ko'chasi, 45, Tel: +998993754605 (Yozishmalar uchun mas'ul muallif).

About the authors:

Ismoilova Odinaxon A'zamjon qizi, E-mail: ismoilovaodinaxon5@gmail.com, Lecturer of the Department of Uzbek and Russian Languages, University of Economics and Pedagogy, Uzbekistan, 171003, Andijan region, Altynkul district, Mehnat MFY, 45, Dostlik street, Tel: +998993754605 (Author responsible for correspondence.)

References

- [1] Ismoilova O. A. Types of internet comments by evaluative nature // *International Bulletin of Applied Science and Technology*. — 2025. — Т. 5, № 6. — С. 474–482. — DOI: 10.5281/zenodo.15738934.
- [2] Ожегов С.И. Словарь русского языка / Ожегов С.И. – М.: Русский язык, 1984. С 618.
- [3] Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2011. – Б.34-35.
- [4] Қурбонова М.Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. (DSc) дисс... автореф. – Тошкент, 2018. – Б.26.
- [5] <https://youtube.com/shorts/bWhODKgoYVw?lc=UgzAQepTMXvQkJrVg6N4AaABAg&si=sh0SRTPmzbweS6Fw>. Murojaat sanasi: 20.01.2026.
- [6] https://youtube.com/shorts/GxYai-CO_xg?lc=UgwHu6W4HbntNlYg2St4AaABAg&si=V3d0Q9xK14pU0Mr5. Murojaat sanasi: 23.03.2026.
- [7] https://youtube.com/shorts/fjFIN9N87bg?lc=Ugwa6j3LJ7nEd9NrorV4AaABAg&si=-esQy_gcaL--pz9N. Murojaat sanasi: 30.03.2026.

Disclaimer/Publisher's Note: The statements, opinions and data contained in all publications are solely those of the individual author(s) and contributor(s) and not of JEP and/or the editor(s). JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) and/or the editor(s) disclaim responsibility for any injury to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products referred to in the content.

Nashriyot qaydi: Ushbu jurnalda chop etilgan barcha materiallarda bayon qilingan fikrlar, qarashlar va ma'lumotlar faqat muallif(lar) va materialni taqdim etgan shaxs(lar)ga tegishli bo'lib, jurnal tahririyati yoki muharrir(lar)ning rasmiy nuqtai nazarini ifoda etmaydi. JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) hamda uning muharrir(lari) mazkur nashrda keltirilgan g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlardan foydalanish natijasida insonlar yoki mol-mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.